

## G'ARB DAVLATLARIDA JAZONI O'TAGAN YOSHLARNING

IJTIMOIY MOSLASHUVI: MUAMMOLAR,  
YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLARXasanov Sharofidin Shayxidinovich<sup>1</sup><sup>1</sup> Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktorantiMAQOLA  
MALUMOTI

## ANNOTATSIYA:

## MAQOLA TARIXI:

Received: 22.06.2025

Revised: 23.06.2025

Accepted: 24.06.2025

## KALIT SO'ZLAR:

Jazo, tarbiya, ijtimoiy holat, psixologik yondashuv, mehnat resurslari, ehtiyojmand, bandlik, nazariyalar.

*XXI asrda jinoyatchilik va uning oqibatlari har bir jamiyat uchun og'riqli va murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, yoshlar o'rtasidagi jinoyatlar va jazoni o'tagan yoshlarning jamiyatga qaytishi muammosi G'arb davlatlarida ham dolzarb bo'lib, u nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy jihatdan keng qamrovli yondashuvni talab qiladi. Mazkur maqolada G'arb davlatlarida jazoni o'tagan yoshlarning ijtimoiy moslashuv muammolari, qayta jinoyatchilik statistikasi, amalga oshirilayotgan davlat dasturlari hamda zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi.*

**KIRISH.** Jazoni o'tagan yoshlarning ijtimoiy moslashuvi: umumiy tavsif .Yoshlar har qanday jamiyatning kelajagi hisoblanadi. Ammo jinoyat sodir etib, jazoni ijro etish muassasalarida bo'lgan yoshlar jamiyatga qaytgach, ko'plab ijtimoiy va psixologik to'siqlarga duch keladilar. G'arb davlatlari bu muammoning oldini olish va retsidivizm (qayta jinoyat sodir etish) darajasini kamaytirish maqsadida qator reabilitatsiya va reintegratsiya dasturlarini ishlab chiqqan (Smith, 2019). Ushbu maqolada jazoni o'tab qaytgan yoshlarning ijtimoiy hayotga qayta moslashuvi, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Yoshlar, ayniqsa 14–25 yosh oralig'idagilar, psixologik va ijtimoiy jihatdan o'sish, shakllanish davrida bo'lib, jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo'lgan guruh hisoblanadi. Ular orasida jinoyat sodir etgan va jazoni ijro etish muassasalarida vaqt o'tkazganlar uchun jamiyatga qaytish jarayoni ancha murakkab kechadi.

Ushbu qismda AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlaridagi qayta jinoyatchilik darajalari, yoshlar bilan ishlash strategiyalari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. G'arb tajribasi: Skandinaviya modeli -Skandinaviya mamlakatlarida, xususan Norvegiya va Shvetsiyada jazoni ijro etish muassasalari "jazolash" emas, balki "qayta tarbiyalash" tamoyiliga asoslangan. Norvegiyada mahbuslarga psixologik yordam, ta'lim olish va kasb-hunar o'rghanish imkoniyatlari beriladi. Jazoni o'tab chiqqach esa, yoshlar uchun yashash joyi bilan ta'minlash, psixologik yordam, ish topishda ko'maklashish kabi xizmatlar taqdim etiladi

Reintegratsiya va moslashuv dasturlari: ilg'or yondashuvlar ham mavjud. Restorativ adolat, jamoaviy uylar, ijtimoiy xizmatlar va 'Through the Gate' kabi dasturlar G'arb davlatlarida keng qo'llanilmoqda. Reintegratsiya – bu jazoni o'tab qaytgan shaxsning jamiyatga, mehnat bozoriga va kundalik ijtimoiy hayotga qayta qo'shilishi jarayonidir. Bu jarayon ayniqsa yoshlar uchun nihoyatda muhim, chunki ular hali hayot yo'lini to'liq tanlab ulgurmagan, ijtimoiy-psixologik jihatdan shakllanishda davom etayotgan qatlamdir.

Ijtimoiy moslashuvni yengillashtirish yo'llari. Yoshlarga ta'lim, psixologik yordam, kasbiy ko'nikmalar, va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatga integratsiyani kuchaytirish yo'llari tahlil qilinadi.

Muammolar: mavjud to'siqlar. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi, huquqiy cheklovlar va ijtimoiy stigma yoshlarga qayta jinoyatchilik xavfini oshiradi.

#### Xulosa

G'arb tajribasi shuni ko'rsatadiki, jazoni o'tagan yoshlarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun ko'p qirrali va tizimli yondashuv zarur. O'zbekiston uchun bu tajribalarni o'rghanish va milliy model yaratish dolzarb masalalardan biridir.

#### Foydalanilgan manbalar:

1. Bureau of Justice Statistics. (2023). Recidivism of Youth Released from Juvenile Facilities.
2. Youth Justice Board for England and Wales. (2023). Youth Justice Statistics.
3. Statistisches Bundesamt. (2022). Strafvollzug und Rückfälligkeit junger Erwachsener.
4. Norwegian Ministry of Justice. (2022). Restorative Justice and Reentry.
5. European Forum for Restorative Justice. (2021). Rehabilitation Practices in Europe.
6. Norwegian Correctional Service, 2021.